

**AXBOROT MAYDONIDA JAMIYAT HAYOTINING IJTIMOIIY-  
MA'NAVIY MUHITIGA TA'SIR ETUVCHI G'OYAVIY-MAFKURAVIY  
TAHDIDLAR**

*Qo'chqorov Inomjon Izzatulla o'g'li  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston  
Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq  
ta'limi yo'nalishining 4-kurs talabasi  
Tel: (99) 700 60 33*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jamiyat hayotining ijtimoiy-ma'naviy muhitiga ta'sir etuvchi g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning tasnifi va ularning oldini olish, ularga qarshi insonlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** kosmopolitizm, suitsid, fundamentalizm, fanatizm, radikalizm, separatizm, vesternizatsiya, missiонерlik, prozelitizm, aktuallashtirish, neoliberalizm, neokonservatizm, sotsial-demokratiya, amoralizm, migratsiya, starizm, beshinchi kolonna, varvarlik, gedonizm, barbi "madaniyati", volyuntarizm, vandalizm, peniyafobiya, ilmoqli qarz, asotirli qarz, besamar investitsiya.

**Abstract:** This article discusses the issues of classification of ideological and ideological threats affecting the socio-spiritual environment of society and their prevention, formation of ideological immunity in the minds of people against them.

**Key words:** cosmopolitanism, suicide, fundamentalism, fanaticism, radicalism, separatism, westernization, missionary, proselytism, actualization, neoliberalism, neoconservatism, social democracy, amoralism, migration, starism, fifth column, barbarism, hedonism, barbie "culture", voluntarism, vandalism, penyaphobia, bad debt, bad debt, bad investment.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы классификации идеологических и идеологических угроз, затрагивающих социально-духовную

## International Conference on Education and Innovation

среду общества и их предотвращения, формирования идеологического иммунитета в сознании людей против них.

**Ключевые слова:** космополитизм, самоубийство, фундаментализм, фанатизм, радикализм, сепаратизм, вестернизация, миссионерство, прозелитизм, актуализация, неолиберализм, неоконсерватизм, социал-демократия, аморализм, миграция, старизм, пятая колонна, варварство, гедонизм, барби «культура», волонтаризм, вандализм, пеньяфобия, безнадежный долг, безнадежный долг, плохие инвестиции.

### KIRISH

Bashariyat olami XXI asrga qadam qo‘yib, chorak asr o‘tib bo‘ldikim hali hanuzgacha dunyo tahdid va xavf-xatarlardan holi emas. Yangi davrning tahdid va xavf-xatarlari oldingi asrdan ko‘p bo‘lsa ko‘pki kam emas, bu esa o‘z navbatida ogoh va sezgir bo‘lishga undamoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir” .

Inson ongi-tafakkuri, o‘zligi va ma’naviy olamini zabt etuvchi o‘zida buzg‘unchi va yovuz, zararli g‘oyalarni namoyon bo‘luvi g‘oyaviy ta’sirlar, oshkora g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar va tazyiqlar teran fikrlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa mamlakat yoshlar tarbiyasiga raxna solishga intilayotgan ekstremizm, kosmopolitizm, konservatizm, suitsid, radikalizm, fundamentalizm, fanatizm, radikalizm, separatizm, vesternizatsiya, terrorchilik, missionerlik, prozelitizm kabi tahdidlarni chegara bilmasligi dunyo afkor ommasining kayfiyati, ruhiyati, ongi-tafakkuri, ijtimoiy-ma’naviy olamiga, o‘zligi-milliy qadriyatlariga, dunyoqarashiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda[1:45].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

## International Conference on Education and Innovation

O‘rganilayotgan va tadqiq etilayotgan mavzuga doir adabiyotlar, tadqiqot ishlariga mantiqiylik sotsiologik tahlil usullari asosida o‘rganish maqsadga muvofiq deb topildi.

Mamlakatimizda jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy muhitiga salbiy ta’sir etuvchi tahdid va xavf-xatarlarning tasnifi ularga qarshi shaxslar o‘rtasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, rivoji haqidagi fikr va mulohazalarning ijtimoiy-falsafiy jihatlari haqidagi izlanish va tadqiqot masalalariga S. Otamurodovning 2008-yil nashr etilgan “Globallashuv va millat”, Q. Nazarov “Falsafa qomusiy lug‘at”, Sh. To‘rayevning 2022-yilda nashr etilgan “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi”, M. Musayevning 2020-yilda nashr etilgan “Globallashuv sharoitida missionerlik va prozelitizmning jamiyat xavfsizligiga tahdidi” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari va kitoblarida tahlil qilib o‘tilgan .

Bugungi kuni globallashgan davr desak, axborotining tarqalish tezligi misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus oldiki, inson tafakkuriga turli yo‘nalishlarda tez va oson ta’sir o‘tkazishi, manipulyator vazifasini bajarishi, inson fikri-xayoli, ma’naviy-ma’rifiy olami, hayotini va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuborishga qodirligi, turli vaziyatlarda salbiy va ijobiy ahamiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylanganligini inkor etish qiyin. Bizning fikrimizcha, bunday salbiy axborotlarning aksariyat katta ko‘pchilik qismi internet (ijtimoiy tarmoqlar, messengerlar) orqali to‘sqinlik kirib kelmoqda va tarqalmoqda [2:23].

Hozirgi vaqtda internet, ijtimoiy tarmoqlar va messengerlar insonlar ongi-tafakkuri va fikri-hayolida go‘yoki hech qanday qonun-qoidalarga amal qilmaydigan, parallel olam sifatida mustahkam, ajralmas o‘rin olib bormoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov internet haqida shunday degan edi: “internet shunday bir narsaki, u yutuq emas, yaxshini – yomon, kamni – ko‘p qilib ko‘rsatuvchi, aqlni chalg‘ituvchi, yoshlarni o‘z domiga oluvchi o‘rgimchak to‘ri bo‘lib, ularni maqsaddan og‘ishiga xizmat qiladi”. Zero, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan axborotlar bugungi kunda global mohiyat kasb etish orqali axborotga egalik qilsa, shu dunyoga hukmronlikni ham pinhona qo‘lga olmoqda. Insonlar ongi-tafakkurini

## International Conference on Education and Innovation

egallash, uni boshqarishga va uni manqurtlik holatiga solishga qaratilgan axborot xurujlarini tobora avj olib soni va salmog‘i oshib bormoqda.

Ayniqsa, axborot maydonida yolg‘on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni zaharlash va manipulyatsiya qilish, milliy-ma‘naviy qadriyatlarni yemirish, ularga zid axloqiy qadriyatlarni olib kirish, milliy mentalitetga mutlaqo yot bo‘lgan begona qadriyatlarni targ‘ib etish, xalqning tarixiy xotirasini buzish, chalkashtirish, ixtiloflar keltirib chiqarish va o‘zgartirish, shu va shunga o‘xshash xavf-xatarlar kechayotganligi, ayniqsa, tashvishli va xavotirlidir.

Bugungi kunda yoshlarning 90 foizi asosiy manba va axborot manbai sifatida internet tarmog‘i, ijtimoiy tarmoqlar va ijtimoiy messenjerlarga murojaat qilmoqda. Bu albatta, qulay axborot manbai va makoni ekani, istalgan narsani va ma‘lumotni bir zumda topa olishingiz mumkinligi, daqiqalar oralig‘ida dunyoning narigi chekkasi bilan bog‘lash va u yerda bo‘layotgan voqea-hodisalardan xabardor bo‘lish imkoniyatlarining mavjudligi muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy tarmoqlar va internetdan foydalanuvchilar kun sayin ortib bormoqda, ularning deyarli 70 foizdan ortig‘irog‘ini yoshlar ekanini inobatga oladigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich hammamizni yanada ogoh va sergak bo‘lishga undaydi. Shu ma‘noda yoshlarimizda zararli va yot g‘oyalarga nisbatan immunitetni shakllantirish, ularni mustaqil fikr va ko‘nikmalarga ega komil inson sifatida tarbiyalash, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini shakllantirish muhim ustuvor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Barcha tahdid va xavf-xatarlarning oldini olish va ularga qarshi immunitetni shakllantiruvchi bo‘g‘in bu albatta ta‘lim tizimi, tarbiya hisoblanadi. Ta‘lim tizimini isloh qilish ta‘limning mazmunini aktuallashtirish, o‘quv axboroti oqimlarini yaratish, pedagogik mehnatni taqsimlash va birlashtirishning mutlaqo yangi shakllarini amalga joriy etishdan tashqari, ta‘limni insonparvarlashtirish va kompyuterlashtirishni nazarda tutgan holda, “bugun ta‘lim tizimida yangi gumanistik qadriyatlar, an‘anaviy gumanitar fanlar joriy etilmoqda”[3:67].

## International Conference on Education and Innovation

Jamiyatimizda inson ruhiyatiga ta'sir etishning bu jihatlarini e'tiborga olib, mamlakatimizda yoshlarni axborot xurujlaridan himoyalash borasidagi tegishli huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan bo'lib, bunda "Voyaga yetmaganlarni jismoniy va ma'naviy rivojiga zarur keltiruvchi axborotdan himoyalash to'g'risida"gi qonun loyihasi hamda "Xavfsiz internet" dasturini tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Bu me'yoriy hujjatlarda internetdan foydalanishning huquqiy mexanizmlari, buzg'unchi nosog'lom axborot kontentidan yoshlarni himoyalash, axborot mazmuniga talablar, yoshlarga mo'ljallangan axborotni ekspertiza qilish, nodavlat tashkilotlarning axborotni monitoring qilish vakolatlari va boshqa me'yorlari belgilangan.

### NATIJARLAR

Bizningcha yosh avlodning axborot iste'mol madaniyatini yuksaltirish vazifalari va usullari vositalariga e'tibor qaratar ekanmiz, avvalo, "targ'ibot" va "tashviqot" ishlarini yanada takomillashtirish kerak. Chunki, targ'ibot — ishontirish va uni ruhlantirishga yo'naltiriladi. Bu haqda Muhammadjon Quronov shunday yozadi: "Mafkuraviy tarbiya — bu xalqning ruhini ko'tarish, uni bir jon-u bir tan qilib yuksaltirish, uning ma'naviy, siyosiy, ijtimoiy faolligini kuchaytirishning ilmiy dasturidir"[4:23].

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu sohada alohida to'xtalib, "o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar — bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi — ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim", — deya ta'kidlagani bejiz emas, albatta[1:129].

Ayni vaqtga kelib tahdid va xavf-xatarlarning soni tobora ortib borayotganligi ayniqsa tashvishlidir. Xususan, ularni insonlar va yoshlar ongi-tafakkuriga ta'sir etish doirasiga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish ham mumkin:

— Ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar (Dunyo fuqaroligi, kosmopolitizm, qayerda yashash yaxshi bo'lsa, o'sha joy vatan g'oyasi, neoliberalizm, konservatizm, neokonservatizm, sotsial-demokratiya, amoralizm, migratsiya, starizm, beshinchi

## International Conference on Education and Innovation

kolonna, liberalizm, varvarlik, gedonizm, barbi “madaniyati”, volyuntarizm, vandalizm);

— Diniy tahdidlar (radikalizm, ekstremizm, mutaassiblik va “g‘ulu” tushunchalari, ularning paydo bo‘lish sabablari va oqibatlari, soxta salafiylik, diniy aqidaparastlik, islom aqidaparastligi, fundamentalizm, islom fundamentalizm!, terrorizm, fanatizm, diniy ekstremizm, islom modernizmi, islom tradisionalizmi, suisid, panislomizm, radikalizm, atanizm satanizm, missionerlik va prozelitizm);

— Siyosiy tahdidlar (etnosentrizm, anarxizm, shovinizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, irqchilik, mafkuraviy poligon, pansovetizm, fashizm, “demokratiya”ni olg‘a surish, neofashizm, gegemonizm, bo‘lib tashlab — hukmronlik qilish, konservatizm, neokonservatizm, separatizm, vesternizasiya, “vijdon erkinligi”, rangli inqilob,);

— Iqtisodiy tahdidlar (peniyafobiya, inflyatsiya, bankrotlik, krizis, ilmoqli qarz, asotirli qarz, besamar investitsiya);

— Hozirgi kundagi eng asosiysi va xatarlisi informatsion tahdidlar (axborot va internet tarmog‘idagi axborot urushi, axborot urushi, mediamanipulyasiya, kiberterrorchilik, virtual jinoyatchilik, vertual ta’qib, onlayn hayot vakillari, ludomaniya, dezinformasiya, etnosentrizm, seduksiya, stokgolm sindromi, yumshoq kuch, dunyo axborot urushi, fleshmob, “ommaviy madaniyat”, psixologik urush, beshinchi kolonna, media virus va hozirgi kungi dolzarb maniya va fobiyalar: TV, media, o‘yin, internet, xayolot va boshqalar)[6:67].

### XULOSA

Ta’lim tizimini samarali tashkil etishda maktabning ham o‘rni beqiyosdir. Oltiyetti yashar bola toki mustaqil shaxs sifatida shakllanib, voyaga yetguniga qadar bo‘lgan hayotini asosan maktabda o‘tkazadi. Demak, maktab insondagi qadriyatlar, qarashlar, intilishlar, dunyoqarash va maqsadlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab bilim berish bilan birga, g‘oyaviy tarbiya o‘chog‘i bo‘lishi lozim. Insondagi vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik tuyg‘ulari, komil insonga xos bo‘lgan boshqa sifatlarning shakllanishi jarayoni bilan bir vaqtda kechsa, bu sifatlari

uning uchun doimiy qadriyatga aylanishi mumkin. Shu jihatdan, maktab yoshidagi bolalarni yetuk inson qilib tarbiyalashda o‘qituvchilarning zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Chunki, har bir o‘qituvchi bolalarga nafaqat ta’lim beradi, balki tarbiyani ham amalga oshiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – “O‘zbekiston”, 2016.
2. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlar muloqoti. – T.: Akademiya, 2008. 9-b.2.
3. Велесова книга. Веды об укладе жизни и истоке веры славян (авторский перевод Славера (Георгия Максимен-ко). — М.: НОУ “Академия управления”, 2010. -7с.
4. Musayev U.S. Yoshlarda yot g‘oyalarga qarshi kurashda mustahkam e’tiqodni shakllantirish vazifalari. — “Tafakkur ziyosi” jurnali, 4-son. Jizzax 2021. - B.100-103.
5. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2018. –Б. 100.
6. Khujanova T. Special proficiency-the provision of youth protection //Scientific researches for development future. — 2019. — С. 50-52. <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/download/3901/2989/#page=51>